



KORRUPSIYA- JAMIYAT KUSHANDASI

Eshqulova Mohidil

Jizzax davlat pedagogika instituti, boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-
bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651397>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-oktabr 2021
Ma'qullandi: 25- oktabr 2021
Chop etildi: 30- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

korrupsiya, vayronkor kuch, hushyorlik, ogohlik, jamiyat taraqqiyoti, poraxo'rlik, hallolik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotiga katta xavf solayotgan illat- korrupsiya borasida. Korrupsiya davlatni yemiruvchi, insoniyatni tubanlashtiruvchi, umuman olganda esa jamiyat kushandasidir. Unga qarshi kurashish, har birimizning betakror Vatanimiz oldidagi burch va vazifamiz

Korrupsiya. Shubhasiz, hech birimiz uchun mavhum bo'lmagan tushuncha. Bir so'z bilan aytganda, korrupsiya (lotinchadan tarjima qilinganda aynimoqni, pora uchun sotilmoqni anglatadi)– nihoyatda vayronkor kuch, uning oqibatida iqtisodiyotga putur yetadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo'qoladi, jamoaviy jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda esa ma'naviyat izdan chiqib boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Qonunbuzarlikdan odamzodga ma'lum bo'lgan birinchi narsa - pora(korrupsiya). Korrupsiya buzg'unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi. Ammo hatto rivojlangan g'arb davlatlari ham undan butkul xalos bo'lolgani yo'q. Biroq uning oldini olish, qarshi kurashish butun Yer

yuzidagi hamma davlatlarda muntazam davom etgan. Shu jihatdan korrupsiya ko'p qamrovli tushuncha hisoblanib, u bilan faoliyat yurituvchilar uchun kundalik hayotga aylangan. Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Shu darajagacha yetib bordiki, birgina tibbiyotning u aralashmagan biror sohasi qolmagan. (Xodimni ishga olishdan tortib, bemorlarga xizmat ko'rsatish-u dori-darmon ta'minoti kabi deyarli barcha sohasining korrupsiyasiz yakun topmasligini ko'ramiz.). Bu korrupsiyaning tibbiyot sohasidagi o'rnini, afsuski boshqa sohalarda ham bu illat o'ziga xos o'rin egallab bo'ldi. Aristotel buni shunday



izohlaydi: "Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi". Tom ma'noda korrupsiyaviy jinoyatchilik ildiz otib, miqdori kun sayin kamaygani yo'q, oshib bormoqda. Eng xatarlisi esa odamlarni bunday holga nisbatan befarqligi, unga oddiy holat sifatida munosabatda bo'lishidir. Chuqurroq o'ylab qarasa korrupsiya va unga bog'liq bo'lgan iqtisodiy jinoyatchilik davlatlarning bugungi rivojlanayotgan vaziyatida taraqqiyotga to'siqlik qiluvchi asosiy xavf manbai, xavfsizlikka tahdid hisoblanadi. Korrupsiyadan ko'rilaётgan zararining ko'lamini cheksiz. Shu o'rinda korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar nimalar ekaniga e'tibor qaratsak:

1) Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi.

2) Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

3) Aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

4) Mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi va boshqa shu kabi bir qancha sabablarni keltirish mumkin.

Shu o'rinda savol paydo bo'lishi tabiiy: dunyoni egallab, jamiyatning taraqqiyotiga raxna solayotgan bu illatni yo'q qilish yoki ta'sir doirasini kamaytirish uchun nima qilish lozim??? Bu chigal bo'lgan masala yuzasidan huquq-tartibot idoralarning

astoydil ishlashi kerakligi, ziyraklik va hushyorlikka jiddiy e'tibor qaratishi kerakligi bir qancha nodavlat tashkilotlar va jurnalistlar tomonidan anchadan buyon e'tirof etiladi. Muhtaram Prezidentimiz ham deyarli har bir chiqishida alohida ta'kidlab o'tadi. Xususan, Respublikamizning Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tadbirda "Korrupsiya bilan O'zbekiston hech qachon oldinga qo'yilgan maqsadlarga erisha olmaydi. 1177 kishi, bu — juda katta raqam. Bu nima degani? Bu jamiyatimiz adolat, halollik, mas'uliyat, xalq ehtiyojlarini qondirish, xalqqa xizmat qilish kabi tushunchalardan hali uzoqligidan dalolat beradi», — deya, O'zbekiston xalqini ogohlikka chaqirdi va Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitalarini tuzish taklifini berdi. Bu borada har qanday jinoyatga qarshi jazo muqarrarligini har birimiz chuqur anglagan holda ish yuritishimiz maqsadga muvofiqdir. Korrupsiyaga aloqador odam nafaqat qonunni buzadi, balki shu orqali o'zining kimligini, ma'naviyati qay darajada ekanini ham ko'rsatadi. Bunday odam davlatga moliyaviy tomondan ziyon yetkazibgina qolmasdan, non-u tuz bergan yurtiga, xalqining yuziga oyoq qo'yadi. O'zining manfaati yo'lida g'arazli niyatlari bilan hech narsadan tap tortmaydigan shaxs qilayotgan ishlarini hech kim bilmaydi sezmaydi deb o'ylaydi. Ammo bilmaydiki, bugun odamlarning ko'zi ochiq, qaysi amaldorning qanday nomaqbul ishlar qilayotgani hammaga birdek ma'lum. Tom ma'noda korrupsiyaviy jinoyatchilik ildiz otib, miqdori kun sayin kamaygani yo'q, oshib bormoqda. Eng xatarlisi esa odamlarni bunday holga nisbatan befarqligi, unga oddiy holat sifatida munosabatda bo'lishidir. Chuqurroq o'ylab



qarasak korrupsiya va unga bog'liq bo'lgan iqtisodiy jinoyatchilik davlatlarning bugungi rivojlanayotgan vaziyatida taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi asosiy xavf manbai, xavfsizlikka tahdid hisoblanadi. Korrupsiyadan ko'rilayotgan zararining ko'lamini cheksiz.

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko'p. Ulardan biri Payg'ambarimizning mana bu qarg'ishlaridir: "Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la'nati bo'lsin!". Yana ul zot aytadilar: "Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la'natlasin!".

Bugungi kundagi jamiyatda eng muhim soha — ta'lim tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikrning yoshlar ongidan chuqur joy egallaganligi eng katta kamchiligimiz.. Unga qarshi kurashuvchi davlat idoralari tashkil etilgan bo'lsa-da, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari ko'ngildagidek emasligini ko'ramiz. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash 2016 yilning oktabr oyidan boshlandi. Shu yilning 14 oktabrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning konstitutsiyaviy qonunchilik tashabbusi asosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun loyihasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi, qonun 2017 yil 4-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solish, davlat boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashi yuzasidan ko'rayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, fuqarolarning

huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaga toqat qilmaslik muhitini yaratish ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ham tashkil etilib bu ham shubhasiz Vatanimizning yuksak taraqqiyoti sari qo'yilayotgan qadamlardan biri. Endi vaziyat o'zgardi. Ochiqlik prinsipi e'lon qilindi. Endi aybdorlar nafaqat jinoiy javobgarlikka tortilyapti, balki butun xalq oldida ismi va kirdikorlari oshkor etilib, tegishli bahosi berilyapti. Ushbu jinoyatlarni ochiqdan-ochiq e'lon qilib, korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha amaliy ishlarni yakuniga yetkazish hamda ularning ildizlariga bolta urish uchun davlat rahbarimizda katta istak va kuchli siyosiy iroda mavjudligi ko'ryapmiz», — deb yozgan edi AOKA rahbari.

Tabiiyki, korrupsiya ortida mo'may daromad topish ilinji turibdi. Ammo shu narsa ayonki, har qanday vaziyatda ham halollik insoniylikning asosiy belgisi bo'lib qolaveradi. Shuning uchun halol odam hamisha baxtli. Bugun esa jamiyatimiz mana shunday farovon hayotga intilmoqda. Millat taraqqiyoti yo'lida borar ekanmiz, korrupsiyani yo'q qilish uchun hammamiz mas'ulmiz. Odamlarning xulq -atvorida axloqiy me'yorlar hal qiluvchi bo'lgan jamiyatda korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida minimal darajada bo'ladi. Biz qanchalik ma'naviyatli bo'lib, korrupsiya



kabi g'arazli illatlardan yiroq bo'lsak, kelajak avlodlar ham bizdan o'rnak olishi tabiiy. Shunday ekan, biz ham bir tan-u bir jon bo'lib, korrupsiya deya atalmish bu jirkanch illatga qarshi kurashib, yurtimiz

taraqqiyoti yo'lida barcha imkoniyatlarimizni ishga solishimiz darkor. Biz jamiyat va adolat kushandasi hisoblangan korrupsiyaga qarshimiz. Zero, bizdan ozod va obod Vatan qolsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Asssambleyasining 48-ssesiyasidagi ma'ruzasi.-T.: O'zbekiston
2. Ismoilov I. Jinoyatchilikda uyushganlik: nazariya va amaliyot muammolari. -T., 2005.
3. Rustamboev M. X. Jinoyat xukuki. Maxsus qism.- T.: O'qituvchi. 2003.- B.302.
4. hozir.org